

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- iyul holatiga **3365,7** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **30,3** ming kishiga yoki **0,9** % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni **1443,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,9** %), qishloq aholisi soni **1921,8** ming kishini (**57,1** %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2021- yil yanvar-iyun

- Aholi soni **30,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **41,9 ming nafami** tashkil etdi.
- **6,7 ming ta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **10,2 ming ta nikoh** va **1,4 ming ta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2021- yil yanvar-iyun oylarida)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (1– iyul holatiga, ming kishi)

	2020- yil	2021- yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish yoki kamayish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	3304,0	3365,7	101,9
Qarshi sh.	276,8	280,6	101,4
Shahrisabz sh.	139,6	141,5	101,4
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	205,3	209,7	102,1
Dehqonobod	148,3	151,2	102,0
Qamashi	272,5	277,0	101,7
Qarshi	249,6	255,5	102,4
Koson	287,1	293,6	102,3
Kitob	264,7	268,3	101,4
Mirishkor	120,1	122,6	102,1
Muborak	87,4	89,2	102,1
Nishon	154,0	157,1	102,0
Kasbi	197,6	201,5	102,0
Chiroqchi	414,3	424,8	102,5
Shahrisabz	222,3	225,1	101,3
Yakkabog'	264,4	268,0	101,4


Hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- iyul holatiga eng ko'p aholi soni Chiroqchi tumanida **424,8** ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi **12,6** %) va Koson tumanida **293,6** ming kishini (**8,7** %), Qarshi shahrida **280,6** ming kishini (**8,3** %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida **89,2** ming kishini (**2,6** %) va Mirishkor tumanida **122,6** ming kishini (**3,6** %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan Chiroqchi tumanida **2,5** % ni, Qarshi tumani **2,4** % ni, G'uzor, Mirishkor, Muborak tumanlarida **2,1** % ni, Dehqonobod, Nishon Kasbi tumanlarida **2,0** % ni va aksincha eng kam o'sish sur'ati Shahrisabz tumanida **1,3** % ni, Yakkabog' tumanida **1,4** % ni va Shahrisabz shahrida **1,4** % ni tashkil etdi.


Demografik holat



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1– iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2021- yil 1– iyul holatiga, % da)



**Doimiy aholi sonining hududlar kesimida
jinslar bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi)**
(2020 yillar 1 iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	Jami	Erkaklar	Ayollar
Qashqadaryo viloyati	3365,7	1703,2	1662,5
Qarshi sh.	280,6	140,3	140,3
Shahrisabz sh.	141,5	72,0	69,5
tumanlar:			
G'uzor	209,7	106,4	103,3
Dehqonobod	151,2	76,5	74,7
Qamashi	277,0	140,6	136,4
Qarshi	255,5	127,0	128,5
Koson	293,6	148,9	144,7
Kitob	268,3	136,4	131,9
Mirishkor	122,6	62,6	60,0
Muborak	89,2	45,1	44,1
Nishon	157,1	78,5	78,6
Kasbi	201,5	102,8	98,7
Chiroqchi	424,8	216,1	208,7
Shahrisabz	225,1	114,4	110,7
Yakkabog'	268,0	135,6	132,4



Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida **41,9** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **25,2** promilni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **1,5** promillega (2020- yilning yanvar-iyun oylarida **23,7** promille) ko'paygan.




O'g'il bolalar: **21,3** ming
Qiz bolalar: **20,6** ming

Tug'ilish koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan Shahrizabz shahrida (**17,7** promilledan **22,3** promillega), Qarshi shahrida (**19,4** promilledan **24,0** promillega) o'sish va Nishon (**25,9** promilledan **25,0** promillega), Muborak (**25,1** promilledan **24,9** promillega), Yakkabog' tumanlarida (**24,9** promilledan **24,3** promillega) kamayish kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskularning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-iyun)



**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni birlik,
o'sish yoki kamayish sur'ati % da (yanvar-iyun)**

	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	38749	41 870	108,1
Qarshi sh.	2659	3 322	124,9
Shahrisabz sh.	1223	1 559	127,5
tumanlar:			
G'uzor	2619	2 704	103,2
Dehqonobod	1901	2 171	114,2
Qamashi	3552	3 602	101,4
Qarshi	2674	2 810	105,1
Koson	3338	3 970	118,9
Kitob	2816	3 019	107,2
Mirishkor	1327	1 375	103,6
Muborak	1087	1 096	100,8
Nishon	1975	1 940	98,2
Kasbi	2287	2 300	100,6
Chiroqchi	5809	6 537	112,5
Shahrisabz	2222	2 240	100,8
Yakkabog'	3260	3 225	98,9



Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida **6,7** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,0** promilleni tashkil etdi (2020- yilning yanvar-iyun oylarida **3,7** promille).


O'lim koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan Dehqonobod tumanida (**3,4** promilledan **3,8** promillega), Chiroqchi tumanida (**3,1** promilledan **3,7** promillega), Koson tumanida (**3,4** promilledan **4,1** promillega), Qarshi shahrida (**3,7** promilledan **4,3** promillega) Shahrisabz tumanida (**3,4** promilledan **4,1** promillega) o'sish va aksincha Yakkabog' tumanida (**4,2** promilledan **3,9** promillega) va Mirishkor tumanida (**3,9** promilledan **3,8** promillega) kamayish kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar: **3,7** ming kishi
Ayollar: **3,0** ming kishi

Tumanlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti
(2021- yil yanvar-iyun)



Demografik holat

Hududlar kesimida o'lganlar soni birlik, o'sish yoki kamayish sur'ati % da (yanvar-iyun)

	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	6008	6 651	110,7
Qarshi sh.	506	599	118,4
Shahrisabz sh.	247	301	121,9
tumanlar:			
G'uzor	391	501	128,1
Dehqonobod	249	280	112,4
Qamashi	517	576	111,4
Qarshi	527	529	100,4
Koson	490	593	121,0
Kitob	451	444	98,4
Mirishkor	232	227	97,8
Muborak	186	170	91,4
Nishon	270	293	108,5
Kasbi	373	386	103,5
Chiroqchi	635	778	122,5
Shahrisabz	381	455	119,4
Yakkabog'	553	519	93,9


Demografik holat



2021- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlar ning **58,0 %** i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,2 %** i o'simtalardan, **5,2 %** i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **5,0 %** i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **5,8 %** i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **1,1 %** i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda **16,7 %** i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni **377** nafarni tashkil etib, ularning **59,9 %** i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, **24,7 %** i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **2,9 %** i tug'ma anomaliyalardan, **1,1 %** i yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **2,9 %** i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **0,2 %** i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va **9,3 %** i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan % da)



Asosiy o'lim sabablari

- qon aylanish tizimi kasalliklaridan
- o'simtalardan
- ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan
- baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan
- nafas olish a'zolari kasalliklaridan
- yuqumli va parazitlar kasalliklardan
- boshqa kasalliklardan

2021- yil yanvar-iyun

Tabiiy o'sish. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi **35,2** ming kishini tashkil etib, 2020- yil mos davriga nisbatan **2,5** ming kishiga (2020- yilning yanvar-iyul oylarida **32,7** ming kishi) o'sgan.



Tabiiy o'sish: **35,2** ming kishi


Nikoh. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan **10,2** ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti **6,1** promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish Qarshi shahrida (**178,1** %), Kasbi tumanida (**137,2** %), Qarshi tumanida (**119,2**%), Dehqonobod tumanida (**183,6** %) va eng yuqori kamayish Muborak tumanida (**111,6** %) ga to'g'ri kelmoqda.


Nikohdan ajralishlar. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan **1,4** mingta, nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti **0,8** promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish Yakka-bog' (**253,7** %), Chiroqchi (**203,3** %), G'uzor (**193,0** %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni birlik, o'sish yoki kamayish sur'ati % da (yanvar-iyun)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da	2020- yil	2021- yil	O'sish yoki kamayish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	7281	10 175	139,7	815	1 354	166,1
Qarshi sh.	597	1 063	178,1	139	175	125,9
Shahrisabz sh.	354	396	111,9	51	86	168,6
tumanlar:						
G'uzor	553	665	120,3	43	83	193,0
Dehqonobod	293	538	183,6	37	52	140,5
Qamashi	575	763	132,7	50	74	148,0
Qarshi	639	762	119,2	61	113	185,2
Koson	693	847	122,2	58	95	163,8
Kitob	481	651	135,3	77	121	157,1
Mirishkor	262	339	129,4	23	33	143,5
Muborak	232	259	111,6	27	30	111,1
Nishon	357	537	150,4	40	75	187,5
Kasbi	398	546	137,2	38	56	147,4
Chiroqchi	813	1 333	164,0	60	122	203,3
Shahrisabz	472	656	139,0	57	102	178,9
Yakkabog'	562	820	145,9	54	137	253,7



Migratsiya. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni **6,6** ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa **11,5** ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus **4,9** ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus **9,2** ming kishi bo'lgan.



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yakkabog' tumanida (minus **0,8** ming kishi), Chiroqchi tumanida (minus **0,7** ming kishi), Kitob tumanida (minus **0,7** ming kishi), Qamashi tumanida (minus **0,6** ming kishi) qayd etildi.

Aholi migratsiyasi (ming kishi yanvar-iyun)

	2020- yil	2021- yil
Ko'chib kelganlar	4,5	6,6
Ko'chib ketganlar	13,7	11,5
Migratsiya saldosini	-9,2	-4,9

**Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
va migratsiya saldosi, kishi (yanvar-iyun)**

	Ko'chib kelganlar		Ko'chib ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
Qashqadaryo viloyati:	4504	6 612	13705	11 542	-9 201	-4 930
Qarshi sh.	979	1 510	1265	1 844	-286	-334
Shahrisabz sh.	145	454	667	777	-522	-323
tumanlar:						
G'uzor	140	255	473	473	-333	-218
Dehqonobod	103	5	397	501	-294	-496
Qamashi	152	245	1400	876	-1 248	-631
Qarshi	878	1 329	765	707	113	622
Koson	224	264	477	661	-253	-397
Kitob	217	243	1723	916	-1 506	-673
Mirishkor	99	145	208	261	-109	-116
Muborak	134	251	199	266	-65	-15
Nishon	427	524	511	614	-84	-90
Kasbi	162	194	390	458	-228	-264
Chiroqchi	109	290	1387	1 028	-1 278	-738
Shahrisabz	419	606	1953	1 052	-1 534	-446
Yakkabog'	316	297	1890	1 108	-1 574	-811

Aholi migratsiyasi ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar (yanvar-iyun)

